



XITOIY VA O'ZBEKISTON STRATEGIK HAMKORLIGINING INVESTITSION DINAMIKASI VA UNING IQTISODIY AHAMIYATI

Tursunboyeva Diyora Erkin qizi

JIDU, XIM fakulteti, Tashqi iqtisodiy

faoliyat yo'nalishi magistranti

+998935317576

diyera.tursunboyeva@mail.ru

Ishmuradov Bahodir Sunnatovich

JIDU, Xalqaro moliya va

investitsiyalar kafedrasida o'qituvchisi

+998909863538

ishmuradov@uwed.uz

Annotatsiya: O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi strategik hamkorlik keyingi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sarmoya yo'li bilan hamkorlik qilishdir. Xitoyning iqtisodiy qudrati va O'zbekistonning geosiyosiy ahamiyati, boyliklari bu hamkorlikni yanada mustahkamlamoqda. Ushbu maqolada O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi sarmoya yo'li bilan strategik hamkorlikning asosiy jihatlari, uning iqtisodiy va siyosiy ahamiyati, istiqboldagi imkoniyatlar va muammolar tahlil qilinadi.

Abstract: Strategic co-operation between Uzbekistan and China has been developing significantly in recent years. One of the main areas of relations between the two countries is co-operation through investment. The economic power of China and the geopolitical importance of Uzbekistan, as well as the wealth of resources, further strengthen this co-operation. This article will analyse the main aspects of strategic cooperation between Uzbekistan and China through investment, its economic and political significance, as well as opportunities and challenges in the future.



Аннотация: Стратегическое сотрудничество между Узбекистаном и Китаем в последние годы значительно развивается. Одним из основных направлений отношений между этими двумя странами является сотрудничество, которое осуществляется посредством инвестиций. Экономическая мощь Китая и геополитическое значение Узбекистана, а также богатство ресурсов способствуют дальнейшему укреплению этого сотрудничества. В данной статье будут проанализированы основные аспекты стратегического сотрудничества между Узбекистаном и Китаем через инвестиции, его экономическое и политическое значение, а также возможности и проблемы в перспективе.

Kalit so'zlar: iqtisodiy hamkorlik, transport va energetika sohalari, logistika, STEM ta'limi, modernizatsiya, infratuzilma, yuqori texnologiyalar, iqtisodiy integratsiya, Bir makon, bir yo'l tashabbusi.

Kirish Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi rasmiy diplomatik munosabatlar 1992-yil 2-yanvarda o'rnatilgan bo'lib, bu ikki davlat o'rtasidagi keng qamrovli hamkorlik tarixining boshlanishi bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O'zbekiston Xitoy bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalarni izchil rivojlantirishga e'tibor qaratdi. 1990-yillar davomida ikki tomonlama muloqotning asosiy yo'nalishlari sifatida siyosiy ishonchni mustahkamlash, iqtisodiy aloqalarni shakllantirish va savdo hajmini oshirish masalalari ustuvor bo'ldi. Xitoy esa shu davrdan boshlab O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi muhim strategik sheriklaridan biri sifatida shakllana boshladi. 2000-yillarga kelib hamkorlik sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Transport, energetika, qishloq xo'jaligi, sanoat va xavfsizlik sohaslarida qator muhim bitimlarning imzolanishi ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayishiga zamin yaratdi. Savdo hajmining sezilarli oshishi, investitsiyaviy hamkorlikning chuqurlashuvi hamda qo'shma loyihalarning ko'payishi O'zbekiston–Xitoy iqtisodiy aloqalarining amaliy mazmunini



yanada boyitdi. 2013-yilda Xitoy raisi Si Szinpin tomonidan ilgari surilgan “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi hamkorlikni yanada jadal rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bugungi kunda O‘zbekiston mazkur tashabbusning Markaziy Osiyodagi asosiy ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Transport-logistika tarmoqlarining modernizatsiyasi, energetika loyihalarining kengaytirilishi, sanoat korxonalarining modernizatsiya qilinishi va yangi texnologiyalarning tatbiq etilishi ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida shakllangan. So‘nggi yillarda O‘zbekiston va Xitoy munosabatlari komprehensiv strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilib, ikki tomonlama hamkorlikning iqtisodiy, siyosiy, investitsiyaviy va madaniy yo‘nalishlari yanada mustahkamlanmoqda. Xitoy bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining eng yirik markazlaridan biri bo‘lib, uning investitsiyaviy salohiyati global iqtisodiy jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston esa tabiiy resurslarga boy, mehnat salohiyati yuqori va geosiyosiy jihatdan muhim hududda joylashgan davlat sifatida Xitoy uchun ishonchli hamkor hisoblanadi. Xitoyning moliyaviy-texnologik imkoniyatlari va O‘zbekistonning strategik joylashuvi o‘zaro manfaatli hamkorlikning yanada kengayishi uchun qulay sharoit yaratmoqda. O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi investitsion aloqalar mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyasi, infratuzilmaning rivojlanishi, energetika tarmoqlarining takomillashuvi hamda sanoat ishlab chiqarishining kengayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shuningdek, bu hamkorlik mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy integratsiya va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi kabi jarayonlarni ham qo‘llab-quvvatlamokda. Mazkur maqolada O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi investitsiyalar orqali shakllanayotgan strategik hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari, uning iqtisodiy va siyosiy ahamiyati, mavjud imkoniyatlar va muammolar, shuningdek, ushbu hamkorlikning uzoq muddatli istiqbollari batafsil tahlil qilinadi.

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi investitsiyalar orqali iqtisodiy hamkorlik



O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik ko‘p qirrali bo‘lib, unda savdo, investitsiyalar, infratuzilma loyihalari, transport va energetika sohalari muhim o‘rin tutadi. Xitoy investitsiyalari O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlariga yo‘naltirilmoqda, bu esa mamlakat iqtisodiyotining modernizatsiyasi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Xitoy kompaniyalari O‘zbekistonda ko‘plab sanoat korxonalarini barpo etmoqda, yangi texnologiyalarni joriy etmoqda va ish o‘rinlarini yaratmoqda. Investitsiyalar orqali amalga oshirilayotgan hamkorlik O‘zbekiston uchun nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Xitoy hozirda O‘zbekistonning asosiy savdo va investitsiya hamkori hisoblanadi. So‘nggi besh yil ichida ikki tomonlama savdo aylanmasi ikki barobar oshib, 2024 -yilda 13 milliard dollarga yetdi. Shuningdek, Xitoydan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar 2017- yilga nisbatan besh baravarga ko‘paydi, va qo‘shma korxonalar soni uch baravarga oshib, 3 700 tadan ortiqqa yetdi. ¹Xitoy investitsiyalari mamlakat infratuzilmasining rivojlanishiga, yangi tarmoqlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda. Natijada aholining turmush darajasi, iqtisodiy barqarorlik oshmoqda va ijtimoiy muammolar kamaymoqda. Bugungi kunga qadar O‘zbekistonga 21 turdagi mahsulotni eksport qilishga ruxsat berilgan (yog‘, quritilgan uzum, gilos, tarvuz, anor, kunjut, quritilgan o‘rik, asal, quritilgan olxo‘ri, limon, loviya, quritilgan tarvuz, tovuq oyog‘i va boshqalar).

Masalan, so‘nggi yillarda mosh va quritilgan uzum eksporti sezilarli darajada oshdi. O‘zbekistonning mosh bo‘yicha Xitoy importidagi ulushi 37% ga, quritilgan uzum importida esa 50% ga yetdi. Shu bilan birga, Xitoy bilan hamkorlik O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro siyosiy maydondagi mavqeini mustahkamlashga yordam beradi.²

¹ Jamshid Khodjaev (2025). Uzbekistan and China Discuss New Investment Projects and Transport Initiatives at Interregional Forum. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-and-china-discuss-new-investment-projects-and-transport-initiatives-at-interregional-forum>

² Madina Aripova (2024). Institute for strategic and regional studies under the president of the republic of Uzbekistan. Comprehensive Strategic Partnership between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China in a New Era. <https://isrs.uz/en/maqolalar/vsestononnee-strategiceskoe-partnerstvo-mezdu-respublikoj-uzbekistan-i-kr-v-novuu-epohu>

**Jadval 1.****Xitoyning 2024 -yilda O'zbekistonga eksport tovarlari**

		Qiymati (AQSH) dollar qiymat	2019- 2024 yillardagi yillik o'sish sur'ati	Xitoyning eksportdagi ulushi %
	Transport vositalari va qismlari	3,073.7	63	2
	Mexanik uskunalar	2,604.4	14	0
	Elektr jihozlari	2,336.3	39	0
	Temir buyumlari	554.3	25	1
	Plastmassa buyumlari	514.5	17	0
	Trikotaj matolar	330.0	28	2

Manba: Muallif tomonidan bajarildi

Jadvalda Xitoyning 2024-yilda O'zbekistonga eksport qilgan asosiy tovarlari, ularning qiymati, so'nggi yillarda o'sish sur'ati va Xitoy umumiy eksportidagi ulushi keltirilgan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Xitoydan O'zbekistonga eng ko'p import qilinadigan mahsulotlar qatorida transport vositalari va ularning qismlari birinchi o'rinda turadi — 3 milliard dollardan ortiq. Bu soha bo'yicha yillik o'sish sur'ati ham eng yuqori (63%), ya'ni O'zbekistonga mashina, yuk mashinasi, elektroavtobus va ularning detallariga talab ortib bormoqda. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarda mexanik uskunalar hamda elektr jihozlari joylashgan. Ularning qiymati mos ravishda 2,6 milliard va 2,3 milliard dollarni tashkil etadi. Bu mahsulotlar sanoat, qurilish va energetika sohalaridagi modernizatsiya jarayonlari sabab doimiy talabga ega. Temir buyumlari, plastmassa mahsulotlari va trikotaj matolar bo'yicha




ham barqaror o'sish kuzatilgan. Ayniqsa trikotaj matolar bo'yicha 28% o'sish O'zbekistonda yengil sanoatning kengayib borayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, jadval Xitoyning O'zbekiston iqtisodiyoti uchun qanchalik muhim savdo hamkori ekanini ko'rsatadi.

2024-yil yanvar oyida Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga tashrifi chog'ida ekologiya, inson resurslarini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlar kabi bir qator yo'nalishlarda 15 dan ortiq bitimlar imzolandi. Xitoyning O'zbekistonga kiritgan investitsiyalari 25 milliard dollarga yetdi, bu esa mamlakat iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchning ortayotganini va O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi muhim strategik hamkor sifatida e'tirof etilayotganini ko'rsatadi.³

Ushbu kelishuvlar va investitsiyalar nafaqat ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi, balki O'zbekistonga ishlab chiqarish quvvatlarini, infratuzilmasini va transport koridorlarini modernizatsiya qilish imkonini beradi. Bu esa mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanish bo'yicha uzoq muddatli maqsadlariga to'liq mos keladi.

2- Jadval



³ Uzbekistan – China: Strategic partnership results for the first nine months of 2024. (2024).

https://uza.uz/en/posts/uzbekistan-china-strategic-partnership-results-for-the-first-nine-months-of-2024_643615



Manba: Muallif tomonidan bajarilgan

Ushbu grafikda 2019–2025-yillar davomida O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi savdo hajmining o‘shish tendensiyasi aks etgan. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, ikki davlat o‘rtasidagi savdo aylanmasi yillar davomida barqaror ravishda oshib borgan. 2019-yilda savdo hajmi taxminan 9 milliard dollarga teng bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda izchil o‘shish kuzatilib, 2022-yilda ko‘rsatkich 13 milliard dollardan oshgan. 2023–2024-yillarda ham o‘shish davom etgan bo‘lib, 2025-yilga kelib savdo hajmi 16 milliard dollardan yuqori bo‘lishi prognoz qilinmoqda.

Ushbu o‘shish Xitoyning O‘zbekiston uchun asosiy savdo hamkorlaridan biriga aylanganini va ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarning izchil mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 2021-yildan keyingi keskin o‘shish sanoat mahsulotlari, texnologik uskunalar, transport vositalari hamda xomashyo almashinuvining kengaygani bilan bog‘liq. Bundan tashqari, O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy liberallashtirish, bojxona tartiblarining soddalashtirilishi ham savdo hajmiga ijobiy ta’sir qilgan.

Transport va energetika sohalaridagi hamkorlik

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi investitsion hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biri transport-logistika sohasidir. Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida O‘zbekiston geografik jihatdan muhim tranzit davlat sifatida ko‘rilmoqda. Ushbu loyiha orqali transport infratuzilmasi modernizatsiya qilinmoqda, yangi yo‘llar, temiryo‘llar va terminallar barpo etilmoqda. Bu nafaqat ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo hajmini oshiradi, balki butun mintaqada iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtiradi. Shu bilan birga, mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlik yangi avlod avtomobillarini ishlab chiqarishda chuqurlashmoqda, ularning har biri elektr va gibrid dvigatellari bilan jihozlangan. 2023 yilda tegishli kelishuvlar Xitoy kompaniyalari «EXEED» va «BYD Auto Industry» bilan imzolangan. Shuningdek,



elektromobillar uchun texnologiyalarni birgalikda ishlab chiqish va quvvatlantirish stansiyalarini o'rnatish bo'yicha kelishuvlar imzolangan. Rejaga ko'ra, 2033 yilga qadar respublikamizning barcha hududlarida 70 ta markazlashtirilgan va 50 mingta markazlashtirilmagan quvvatlantirish stansiyalari qurilishi rejalashtirilgan.

Umumjahon miqyosidagi «yashil» rivojlanishga o'tish tendensiyasi sharoitida, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh, shamol, gidroelektr stansiyalari) keng joriy etishga doir qo'shma loyihalarni amalga oshirish — O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlikning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.⁴

Energetika sohasida esa O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi hamkorlik an'anaviy energiya manbalarini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda, “yashil energiya” klasterlarini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Samarqand, Jizzax, Navoiy va Qoraqalpog'istonda Xitoy kompaniyalari tomonidan amalga oshirilayotgan yirik quyosh va shamol stansiyalari O'zbekiston energiya tizimiga qo'shimcha quvvatlar yaratib, yiliga millionlab kilovatt-soat ekologik toza elektr ishlab chiqarish imkonini bermoqda. Bu loyihalar nafaqat ishlab chiqarishni ko'paytiradi, balki CO₂ chiqindilarini kamaytirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, Xitoy bilan hamkorlikda yog'-gaz va ko'mir sektorlarini optimallashtirish, energiya yo'qotishlarini kamaytirish, zamonaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish bo'yicha texnik loyihalar ham amalga oshirilmoqda. Smart Grid texnologiyalarini tatbiq etish elektr tarmoqlarining uzluksiz ishlashini ta'minlab, aholiga ko'rsatiladigan energetik xizmatlar sifatining oshishiga olib kelmoqda.

Sanoat kooperatsiyasi doirasida Xitoy investitsiyalari yordamida O'zbekistonda innovatsion texnoparklar, ilmiy-ishlab chiqarish markazlari, kimyo

⁴ Madina Aripova (2024). Institute for strategic and regional studies under the president of the republic of Uzbekistan. Comprehensive Strategic Partnership between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China in a New Era. <https://isrs.uz/en/maqolalar/vsestononnee-strategiceskoe-partnerstvo-mezdu-respublikoj-uzbekistan-i-kr-v-novuu-epohu>



va farmatsevtika klasterlari, elektronika va elektrotexnika zavodlari barpo etilmoqda. Mazkur korxonalar yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan bir qatorda, mahalliy mutaxassislarning malakasini oshirish, ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish va mahalliy mahsulotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Ta’lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlik

O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi strategik hamkorlikda ta’lim va ilm-fan sohasi ham muhim o‘rin tutadi. Xitoydagi oliy o‘quv yurtlari va ilmiy markazlar bilan hamkorlik O‘zbekiston yoshlariga malakali kadr sifatida tayyorlanish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish imkonini bermoqda. Bu esa mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Xitoyda ta’lim siyosatining SDG 4 maqsadlari bilan integratsiyasi O‘zbekiston ta’lim tizimiga bir qator bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatdi. Xitoy 2015-yildan boshlab ta’limni modernizatsiya qilishni milliy ustuvorlikka aylantirdi va 2018-yilda qabul qilingan “2035-yilgacha ta’limni modernizatsiya qilish konsepsiyasi” orqali raqamli ta’lim, infratuzilma, o‘qituvchilar malakasi va teng ta’lim imkoniyatlari kabi yo‘nalishlarga katta sarmoya yo‘naltirdi. Shu jarayonda Xitoy ta’limga yiliga 4,6 trillion yuan ajratish orqali ta’limni iqtisodiy o‘sishning asosiy omiliga aylantirdi. Ushbu strategiya O‘zbekiston uchun ham muhim tajriba bo‘lib xizmat qildi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda maktab qurilishi va rekonstruksiya jarayonlarining jadallashishi, ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etish, STEM yo‘nalishlarini rivojlantirish, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish aynan Xitoy modelining ijobiy ta’sirini aks ettiradi. Bundan tashqari, Xitoy bilan qo‘shma texnik kollejlari, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot loyihalari va o‘qituvchi hamda talabalar almashinuvi dasturlarining kengayishi O‘zbekistonning ta’lim sifati va texnologik salohiyatini oshirdi. Natijada O‘zbekiston ta’lim tizimining



modernizatsiya jarayonida Xitoyning tajribasi muhim oʻrnak va hamkorlik manbai boʻlib xizmat qilmoqda.

Toshkent shahrida Ikkinchi Oʻzbekiston–Xitoy taʼlim forumi boʻlib oʻtdi. Tadbirning tantanali ochilish marosimida Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vaziri Qoʻngʻirotdoy Sharipov, Xitoy Xalq Respublikasi Taʼlim vaziri Xuay Jinpen hamda Xitoyning Oʻzbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Van Jivey ishtirok etdi. Ochilish nutqlarida ikki tomon hamkorlikning hozirgi surʼatlari yuqori baholanib, Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi oliy taʼlim, ilm-fan, innovatsiyalar, kasbiy taʼlim hamda til oʻqitish yoʻnalishlaridagi aloqalar izchil ravishda kengayib borayotgani taʼkidlandi. Xitoy tomoni Oʻzbekiston bilan ilgʻor raqamli taʼlim konsepsiyalari, platformalari va oʻquv resurslari bilan oʻrtoqlashishga tayyor ekanini bildirdi. Shuningdek, oʻzbek oliy taʼlim muassasalari Xitoy tashabbusi ostida tashkil etilgan Xalqaro Raqamli Taʼlim Alyansi va Global MOOC hamda Onlayn Resurslar Alyansi kabi platformalarda faol ishtirok etishga taklif etildi.

U yerda aynan, ayni paytda Oʻzbekistonning 23 ta oliy taʼlim muassasasida 2 725 nafar talaba 38 ta yoʻnalishda xitoy tilini oʻrganmoqda. Bundan tashqari, 7 mingdan ortiq oʻzbekistonlik talaba Xitoy universitetlarida tahsil olmoqda. Soʻnggi uch yil mobaynida 500 dan ziyod talaba va oʻqituvchilar grant dasturlari asosida Xitoyda til va madaniyat boʻyicha oʻqishga yuborilgan. Taʼlim sohasidagi amaliy natijalar ham salmoqli: ikki davlatning 11 ta universiteti oʻrtasida 29 ta qoʻshma taʼlim dasturi joriy etilgan. Bu koʻrsatkich Oʻzbekiston va Xitoy oʻrtasidagi akademik hamkorlikning real natijalarini namoyon etadi. Forum doirasida oliy taʼlim, ilmiy izlanishlar va innovatsion loyihalar boʻyicha yangi kelishuvlar ham imzolandi. Vazirlar ishtirokida universitetlar vakillari qoʻshma loyihalar, almashinuv dasturlari va ilmiy hamkorlikni amalga oshirishga qaratilgan bitim va memorandumlarni almashdi.

Xulosa



Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi investitsiyalar orqali amalga oshirilayotgan strategik hamkorlik ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy aloqalarni, mintaqaviy barqarorlikni va taraqqiyotni mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqda. Bu hamkorlik nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki o'zaro ishonch va xalqaro miqyosdagi hamkorlikni ham kuchaytiradi. Shu sababli mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanib, ikki tomonlama aloqalarni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, bugungi kunda kuzatilayotgan O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi barcha sohalaridagi munosabatlarning yuqori dinamikasi shuni ko'rsatadiki, ushbu tendensiya yanada kuchayib, yangi impulslarga ega bo'ladi. Mamlakatlar erishilgan natijalar bilan cheklanmasligi, ikki tomonlama hamkorlikni quyidagi yo'nalishlarda yanada mustahkamlashi muhimdir:

Birinchidan, siyosiy dialogni chuqurlashtirish. Geosiyosiy beqarorlik va dunyoda o'sib borayotgan noaniqlik sharoitida, mamlakatlar o'rtasida strategik o'zaro ishonch va dialogni mustahkamlash, nafaqat ikki tomonlama darajada, balki mintaqaviy va global strukturalar doirasida ham ikki davlatning xalqaro maydondagi umumiy pozitsiyalari va manfaatlarini ilgari surishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish. Xususan, sanoat kooperatsiyasini mustahkamlash, tovar aylanmasini muvozanatli oshirish, Xitoy investitsiyalarini O'zbekistonning yuqori texnologiyali iqtisodiy sohalariga jalb qilish orqali yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarish, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha qo'shma korxonalarni yaratish muhimdir.

Uchinchidan, transport-logistika sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash. Hozirgi sharoitda mamlakatlar o'zaro savdoni oshirish va yangi eksport bozorlariga chiqish uchun turli transport-logistika yo'llarini yaratish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirishi zarur.



To'rtinchidan, "yashil" rivojlanish va raqamlashtirish yo'nalishida hamkorlikni faollashtirish. Ushbu yo'nalishda tajriba almashish va Xitoy investitsiyalarini qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, zamonaviy resurs tejovchi, energiya samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, innovatsion raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga jalb qilish muhim rol o'ynaydi.

Beshinchidan, ta'lim va ilm-fan sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish. Bugungi globallashuv sharoitida innovatsion rivojlanishning asosiy omili sifatida malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyatga ega. Xitoyning raqamli ta'lim, STEM yo'nalishlari, ilmiy-tadqiqot infratuzilmasi, pedagoglar malakasini oshirish va xalqaro ta'lim platformalarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribasi O'zbekiston uchun muhim metodik hamda texnologik maktab vazifasini bajarmoqda. Shu bois ikki davlat o'rtasida qo'shma oliy ta'lim dasturlari sonini ko'paytirish, qo'shma ilmiy markazlar tashkil etish, yosh olimlar hamda talabalar almashinuvini kengaytirish, Xitoyning raqamli ta'lim resurslarini O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiya qilish orqali kelajakda innovatsion iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash yanada jadallashadi.

Adabiyotlar va havolalar

1. Расулова, Д. (2022). "Стратегическое сотрудничество и инвестиции: на примере Узбекистана и Китая". Ташкент: политика и общество.
2. Мирзаев, Б. (2023). "Внешняя инвестиционная политика Узбекистана и китайский фактор". Ташкент: издательство академии наук Узбекистана.
3. Jamshid Khodjaev (2025). Uzbekistan and China Discuss New Investment Projects and Transport Initiatives at Interregional Forum. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistan-and-china-discuss-new-investment-projects-and-transport-initiatives-at-interregional-forum>



4. Madina Aripova (2024). Institute for strategic and regional studies under the president of the republic of Uzbekistan. Comprehensive Strategic Partnership between the Republic of Uzbekistan and the People's Republic of China in a New Era. <https://isrs.uz/en/maqolalar/vsestoronnee-strategicheskoe-partnerstvo-mezdu-respublikoj-uzbekistan-i-knr-v-novuu-epohu>

5. 2030 UN Agenda for Sustainable development China's progress report on SDG 4-education 2030 (2021)

6. Uzbekistan – China: Strategic partnership results for the first nine months of 2024. (2024). https://uza.uz/en/posts/uzbekistan-china-strategic-partnership-results-for-the-first-nine-months-of-2024_643615

7. The Second Uzbekistan–China Education Forum. <https://gov.uz/en/edu>

8. China and Uzbekistan's green energy partnership for sustainable growth. <https://news.cgtn.com/news/2025-06-11/China-and-Uzbekistan-s-green-energy-partnership-for-sustainable-growth>